

АХОЛИ О‘RTASIDA SOLIQ INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Bank-moliya akademiyasi magistranti
Xolmurodov Jurabek Farxod o‘g‘li
Xolmurodov_jf@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi o‘rtasida soliq intizomini mustahkamlash mexanizmini takomillashtirish yo‘llari, soliqqa tortish va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganildi. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosida soliq ma‘muriyatchiligining soliq majburiyatlarini bajarishdagi roli o‘rganildi. Shuningdek, ushbu o‘rganishda soliq madaniyati va soliq intizomi tadqiq etildi, chunki davlatning qudrati iqtisodiy salohiyati uning moliyaviy ta‘minlanganligi asosida quriladi. Shuning uchun aholining yuksak soliq madaniyati har bir davlatning kelajagini belgilaydi, shu asnoda biz ham ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida aholini soliq madaniyati va soliq intizomi shakllantirishdagi omilarni o‘rganishni va muhokama qilinishni belgilab oldik.

Kalit so‘zlar: soliq, soliq solish, soliq intizomi, soliq madaniyati, soliq to‘lovchilar, soliq yuki, soliq huquqi, soliq organlari, soliq xodimlar, soliqqa tortish, soliq ma‘muriyatchiligi, samarali soliq ma‘muriyatchiligi tizimi, soliqqa tortish rejimi, soliq ma‘muriyatchiligi vosita va usullari, soliq imtiyozlari.

Annotation: this article studied the complex relationship between ways of improving the mechanism of strengthening tax discipline among the population, taxation and economic development. Based on the research of foreign scientists, the role of tax administration in the fulfillment of tax obligations was studied. Also in this study, the tax culture and tax discipline were researched, since the economic potential of the power of the state is built on the basis of its financial provision. Therefore, the high tax culture of the population determines the future of each state, as well as the main purpose of this study, we have identified the study and discussion of Omis in the formation of tax culture and tax discipline of the population.

Keywords: tax, taxation, tax discipline, tax culture, taxpayers, tax burden, tax law, tax authorities, Tax employees, taxation, tax administration, effective tax administration system, taxation regime, tax administration tools and methods, tax benefits.

KIRISH

Soliqlar har bir davlatchilikning ajralmas poydevori bo‘lib, hukumatlarning davlat xizmatlari, infratuzilma va ijtimoiy farovonlik dasturlarini qurish va qo‘llab-quvvatlashda moliyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Soliqlar mohiyatiga kura fuqarolar

umumiy farovonlikni ta'minlash uchun to'laydigan to'lovlardir. Fiskal siyosat sohasida soliqqa tortish tushunchasi yangilikdan yiroq bo'lib, u kommunal ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun turli shakllarda badallar kiritilgan qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Asosiy konsepsiya saqlanib qolsada, zamonaviy soliqqa tortish tizimlarining murakkabliklari zamonaviy iqtisodiyotlar va boshqaruv tuzilmalarining ko'p qirrali xususiyatini aks ettiruvchi eksponent ravishda rivojlandi.

Ushbu murakkab soliq tizimida soliq ma'muriyatchiligining roli nafaqat davlat daromadlarini yig'ish, balki jismoniy va yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini adolatli va samarali bajarilishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Soliq organlariga soliq to'lovchilarni o'z majburiyatlari to'g'risida o'rgatishdan tortib, soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlash va undirish jarayonini boshqarishgacha bo'lgan bir qator vazifalar yuklangan. Biroq soliq majburiyatlarini bajarish jarayoni murakkab bo'lishi mumkin va ularning bajarilishini ta'minlash uchun javobgarlik soliq ma'muriyatchiligi zimmasiga tushadi. Ushbu ma'muriyatchilikning samaradorligi mamlakatning moliyaviy holati, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligiga chuqur ta'sir qiladi. Bu esa soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirib borishni zaruratga aylantiradi. Bu zaruratga ehtiyoj barcha mamlakatlar kabi O'zbekiston uchun ham muhim hisoblanadi.

Insonning axloqiy fazilatlarini uning shaxsiy harakatlari bilan emas, balki kundalik hayoti bilan baholanishi kerak. Bugungi kunga kelib, nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng ko'p muhokama qilinadigan muammolaridan biri bu soliq savodsizligi. Afsuski, jamiyat rivojlanishining ushbu bosqichida bu ko'rsatkich past darajada, bu turli sabablarga bog'liq: aholining katta qismi asosiy ma'lumotga ega emas, aholi uchun kompyuter texnologiyalari va Internet resurslarining mavjud emasligi, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar to'g'risida bexabarlik va boshqalar. O'z navbatida, soliq savodxonligining pastligi yashirin iqtisodiyotining rivojlanishi, byudjetga daromad tushumlarining past darajasi, ijtimoiy muhitda keskinlikning paydo bo'lishi, mintaqa iqtisodiyotining beqarorlashishi va boshqalar kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, huquqiy bilimga ega bo'lish, o'z huquqlaringiz va soliq imtiyozlarini olish imkoniyatlari to'g'risida bilish mintaqani rivojlantirish uchun zarur shartdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot doirasida iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan va ushbu sikl davom etmoqda. Aholi o'rtasida soliq intizomini mustahkamlash mexanizmini takomillashtirish soliq ma'muriyatchiligining asosiy vazifasi bo'lib, davr o'tishi bilan ularning yondashuvlari ham o'zgarishi yoki shunga zarurat ortishi mumkin, bu esa sohani doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

Aholi o'rtasida soliq intizomini mustahkamlash mexanizmini takomillashtirish har bir soliq tizimini isloh qilishning eng muhim qismidir. Soliq tizimini isloh qilishning ma'muriy jihatlarini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak (R.Bird, 2004)¹.

Aholi o'rtasida soliq intizomini mustahkamlash mexanizmini takomillashtirish masalasida soliq ma'muriyati javobgardir. Uning asosiy solig'i soliqning to'g'ri miqdorini o'z vaqtida to'lashni ta'minlashdan iborat bo'lib, hukumatga tovarlar va xizmatlarni rejalashtirilgan tarzda yetkazib berish uchun zarur daromadlar bilan ta'minlaydi. Samarali soliq boshqaruvi tizimi ham rivojlanayotgan, ham rivojlangan iqtisodlar uchun juda muhimdir, chunki daromadlarning yetarli darajada yig'ilishi iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Butun dunyo bo'ylab soliq ma'muriyatlarining tegishli roli mavjud soliq qonunchiligiga muvofiq soliq tushumlarini oshirishdan iborat (J.Martinez-Vazquez va boshq. 2022)².

Soliq ma'muriyati soliqlarni samarali rejalashtirish, majburiy soliq yig'ish, oson undirish va soliq tushumlarini to'g'ri hisobga olish va undan foydalanishga erishish uchun har qanday hukumat tomonidan qo'llaniladigan asoslar, tartiblar, tamoyillar va strategiyalar bilan bog'liq (G.N.Ogbonna, 2016)³.

Soliq ma'muriyati har qanday hukumat tomonidan samarali soliq rejalashtirish, majburiy soliq undirish, oson undirish va olingan daromadlarni to'g'ri hisobga olish va undan foydalanishni ta'minlash uchun qo'llaniladigan taktika, g'oyalar va strategiyalarni anglatadi (S.Maiga, 2015)⁴.

Soliq qonunlari va siyosati soliq ma'muriyatining soliq yurisdiksiyasiga ta'sir qiluvchi yangi muammolarni hal qilishda kuchini aniqlashga yordam beradi (A.O.Aliyu va boshqalar, 2022)⁵.

Ko'pgina soliq ma'muriyatchiligi tadqiqotlari asosan soliq ma'muriyatining samaradorligi, siyosat oqibatlari va yagona davlat sharoitida islohot bo'yicha takliflarga qaratilgan. Ajablanarlisi shundaki, tadqiqotlar yaxshi rivojlangan va rivojlanayotgan davlat boshqaruvlariga qaratilgan (R.Avasthi va boshqalar, 2021), ammo, bu davlatlararo tahlillar kamdan-kam uchraydi, degani emas. Masalan, Van Stolk va Vegrich (2008) soliq ma'muriyatchiligi uchun samaradorlik ko'rsatkichlarini tanlashda oltita rivojlangan iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchlarini solishtirdilar⁶.

¹ Bird, R. (2004). Administrative dimensions of tax reform. *Asia-Pacific Bulletin*, 10, 3–21.

² Martinez-Vazquez, J., Sanz-Arcega, E. and Tránchez-Martin, J.M. (2022) Tax Revenue Management and Reform in the Digital Era in Developing and Developed Countries. *International Center for Public Policy Working Paper 22-01* January 2022, Andrew Young School of Policy Studies, Georgia State University, Atlanta, 1-41.

³ Ogbonna, G.N. (2016) Effect of Tax Administration and Revenue on Economic Growth in Nigeria. <https://www.iiste.org>

⁴ Maiga, S. (2015) The Impact of Tax Collection in Achieving Revenue Targets: The Directorate General of Taxes of Mali Case Study. *Theoretical Economics Letters*, 5, 403-409.

⁵ Aliyu, A.O., Kumai, N.S. and Mustapha, L.O. (2022) A Conceptual Review of Nigerian Tax Administration in Globalisation and Profit Shifting Challenges. *Open Access Library Journal*, 9, 1-10. doi: 10.4236/oalib.1109030

⁶ Van Stolk C., Wegrich K. (2008) Convergence without diffusion? A comparative analysis of the choice of performance indicators in tax administration and social security. *Int. Rev. Adm. Sci.*, 74 (4), pp. 589-614,

Yuqorida adabiyotlarni ko'rib chiqib, aholi o'rtasida soliq intizomini mustahkamlash mexanizmini takomillashtirishda soliq ma'muriyatchiligining ko'p qirrali mohiyati va uning soliq siyosatini amalga oshirish va daromadlarni yig'ishdagi muhim roli tushunildi. Soliq ma'muriyatchiligi har qanday soliq tizimini isloh qilishning muhim tarkibiy qismi va ular soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Soliq ma'muriyatchiligi soliq tushumlarini samarali rejalashtirish, undirish va to'g'ri foydalanishga erishish uchun hukumatlar tomonidan qo'llaniladigan tamoyillar, tartiblar, strategiyalar va taktikalarni o'z ichiga olgan holda belgilanishi ta'kidlanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning xususiyatiga qarab, empirik ma'lumotlar to'planib, ilmiy abstraksiya, bibliografik tahlil usullaridan foydalangan holda tadqiqot olib borilgan. Adabiyotlarni ko'rib chiqishda aniqlangan asosiy nazariyalar va asoslarni tushunish, shuningdek, tadqiqot ishida shakllangan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari aks ettirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarishning yangi samarali vosita va usullaridan foydalanish asosida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda soliq intizomini mustahkamlash metodologiyasi va umumiy nazariyasini rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu borada iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida "soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish"⁷, "soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish"⁸, "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi vazifalari ijrosi yakunida soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish lozimligi"⁹ ta'kidlandi. Bular davlat tomonidan samarali soliq siyosatini yuritish bo'yicha strategik rejalashtirish va prognozlashtirish vazifalarini belgilab berdi. Mazkur vazifalar byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash, soliq ma'muriyatchiligi samarali tizimini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatib beradi. Soliq bazasini kengaytirish va soliq to'lovchilar moliyaviy imkoniyatlari tizimidagi hozirgi zamon o'zgarishlarini hisobga olgan holda samarali soliq ma'muriyatchiligi asosida soliq tulovchilarning soliq organlari faoliyati sifatidan konikishlarini kompleks baxolash uslubiyoti taklif etiladi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi PF-4947-son Farmoni. - www.lex.uz

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-sonli farmoni, 2019-yil 26-sentyabr.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ4389-son qaroriga 1-ilova "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"ning 3-bob, 3.3-bandi.

Soliqqa tortish, evolyutsion jarayon bo‘lib, ko‘p jihatdan soliq madaniyati darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu asosan uning barcha ishtirokchilarining soliq xattiharakatlarining shakllanishini belgilaydi. Aholining soliq xatti-harakati soliq madaniyatini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan qiymat yo‘nalishlari, shu jumladan huquqiy normalar, motivatsiyalar, urf-odatlar, an’analar va odatlar bilan belgilanadi¹⁰.

Soliq madaniyati-bu bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan jamiyatga xos bo‘lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, uning darajasi davlatning fiskal salohiyatini belgilaydi. “Soliq madaniyati” tushunchasini aniqlashga olimlarning yagona yondashuvi mavjud yemas, chunki haqiqatan ham soliq mavzularidagi har bir tadqiqot ma’lum sharoit va hududiy joylashga bog‘liqdir.

Hududiy joylashuv haqida gapirar ekamiz, prezidentimiz tashabbusi yodga olishimiz darkor “Birinchi navbatda, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Biz chuqur tahlil qildik. Kelgusi yildan boshlab tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratiladi. Jumladan, tadbirkorlik uchun har tomonlama rivojlangan 26 ta tuman – 1-toifaga; infratuzilmasi yaxshi bo‘lgan 46 ta tuman – 2-toifaga; sharoiti nisbatan qoniqarli bo‘lgan 76 ta tuman – 3-toifaga; jozibadorligi yetarli bo‘lmagan 40 ta tuman – 4-toifaga; sharoiti og‘ir bo‘lgan 20 ta tuman – 5-toifaga to‘g‘ri keladi. Endi toifaga qarab, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilaymiz. Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi. Ular uchun soliq stavkalari har xil bo‘ladi”- Shavkat Mirziyoyev¹¹.

Yuqoridagi mulohazalar yana bir bor soliq madaniyati hududiy joylashuv va yondashishga bog‘liqligini belgilaydi, B. Nerrening so‘zlariga ko‘ra, ma’lum bir mamlakatda uning klassik tushunchasi, birinchi navbatda, soliq tizimini yaratuvchilaridir¹². Soliq to‘lovchilar soliq madaniyatining bir qismi hisoblanmadi. Birinchi marta “soliq madaniyati” ta’rifi J. Shumpeterning “daromad solig‘i iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” maqolasida ishlatilgan bo‘lib, u soliq madaniyati jamiyatning soliq ongi darajasini oshirishga qaratilgan inson ma’naviyati va ijodining ifodasidir¹³ degan.

Soliq ma’urchiligining samaradorligi soliq tizimining holati, uning yaxlitligi barqarorligi, fiskal va iqtisodiy samaradorligidan iboratdir. Mamlakat byudjet tizimini soliq to‘lovlari bilan to‘ldirishning barqarorligi, soliq huquqbuzarliklarini aniqlash va

¹⁰ Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In E Conference Zone (pp. 92-95).

¹¹ ‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

¹² Nerre Birger. The Concept of Tax Culture. In: National Tax Association Proceedings Ninety-Fourth Annual Conference. Baltimore, Maryland / Edited by Sally Wallace. NTA, Washington DCB, 2001. P. 291.

¹³ Schumpeter J.A. Okonomie und Soziologie der Einkommensteuer // Der Deutsche Volkswirt. 1929. Vol. 4. P. 380–385.

oldini olishning o'z vaqtida amalga oshirilishi va soliq to'lovchilarga o'z konstitutsiyaviy vazifalarini bajarishda qulay shart-sharoitlarni ta'minlash qanchalik yuqori ekanligiga bog'liq [5]. Shunday ekan yana bir ko'rsatgichga to'xtalsak O'zbekiston Respublika bo'yicha soliq organlari tomonidan byudjetga 2023-yil I choragida 37,8 trln so'mdan ortiq mablag'lar tushumi ta'minlanganligini aytish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Soliq organlari tomonidan byudjetga 2023-yil I choragidagi tushumi ta'minlanganligi soliq turlari kesimida¹⁴

T/r	Soliq turi	Tushum miqdori	O'tgan yilning mos davriga nisbatan	
			Tushum (+;-)	foizda
1	Foyda solig'i	9,5 trln so'm	392,4 mlrd so'm	8,6%
2	QQS	8,4 trln so'm	807,7 mlrd so'm	10,6%
3	JShODS	6,6 trln so'm	1,4 trln so'm	26,5%
4	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3,5 trln so'm	82,4 mlrd so'm	6,4%
5	Yer solig'i	1,4 trln so'm	311,4 mlrd so'm	28%
6	Mol-mulk solig'i	1,3 trln so'm	372,9 mlrd so'm	39,5%
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	205,8 mlrd so'm	26,4 mlrd so'm	14,7%

Jadvaldan ko'rinadiki barcha soliq turlari bo'yicha o'sishga erishilgan, bu shuni anglatadiki davlat soliq organlari tomonidan tashkil etilgan ishlar va ko'rilgan chora tadbirlar bilan birgalikda soliq to'lovchilar madaniyatining o'sgani, hamkorlik munosabatlarini uyg'unligiga erishilganligi bunga zamin yaratganini aytish mumkin.

Soliq madaniyatining muhim elementi soliq intizomidir. Fuqarolarning soliq intizomi soliq madaniyatining asosiy elementi va aholining soliq savodxonligining asosidir¹⁵. Soliq intizomi soliq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni turli darajadagi byudjetlarga to'lash majburiyatlariga munosabatini belgilaydi¹⁶.

¹⁴ Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In E Conference Zone (pp. 92-95).

¹⁵ Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). Soliq yukining biznes uchun ahamiyati. Scientific progress, 3(3), 699-708.

¹⁶ Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o'rni. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 121-127.

Biroq, zamonaviy dunyoda ko'plab soliq to'lovchilar u yoki bu tarzda soliq majburiyatlarini bajarishdan qochish yo'llarini topishga harakat qilmoqdalar. Bu xatti-harakatni odamning jamg'arishga moyilligi va o'z ishining natijalarini boshqalar bilan, ayniqsa davlat bilan bo'lishishni istamasligi va soliqlarning mohiyati bilan izohlash mumkin.

Bizningcha soliq intizomini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni uzoq davom yetadi va ko'plab muammolarga duch kelishadi, ularga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- soliq qonunchiligidagi nomukammallik va tez-tez o'zgarishlar;
- soliq masalalari, shuningdek, reklama va axborot tadbirlarini o'tkazish, media kanallardan foydalanish bo'yicha fuqarolarga yetarlicha maslahat berilmagan;
- soliq organlariga jamoatchilik ishonchining yo'qligi;
- soliq protseduralarining sifatsiz bajarilishi;
- davlat xizmati xodimlarining motivatsiyasi yetarli emasligi;
- soliq organlarida kadrlarning tez almashinuvi;
- kompaniyalar o'rtasidagi raqobatning o'sishi, bu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq yukini kamaytirish usullaridan foydalanishga olib keladi.

Soliq madaniyati va intizomining yuqori darajasini ta'minlash muammosini hal qilishning dolzarbligi jamiyatning o'zi deviant xulq-atvorni yoki uning yashirin targ'ibotini qo'zg'atadigan paradoksal vaziyat bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, soliq savodxonligini oshirish va omma orasida soliq madaniyatini shakllantirishning maqsadli tushunchalarining yo'qligi soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni to'lamaslik va hatto undan qochishni qahramonlik sifatida qarashga olib keldi. Hatto taniqli soliq maslahatchilari ham umumiy matbuotda soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullarini nashr etadilar va ularning har biri bunday usullarni qanchalik ko'p taklif qilsa, u shunchalik malakali professional hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki aholini faol, aniq, ochiq va keng ko'lamli xabardor qilmasdan qonun ustuvorligini shakllantirish va yuqori darajadagi madaniyatni shakllantirish mumkin emas. Huquqiy ma'lumotlar davlat aholisi o'rtasida huquqiy nigilizmning oldini olishning zaruriy shartidir. Ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va hokimiyatlarning muvofiqlashtirilishi va o'zaro ta'sirini ta'minlash, qonun chiqaruvchi organning qonun va tartibni o'rnatish, huquqiy bilimlarni tarqatishdagi faoliyati, shuningdek soliq maslahatchilari, auditorlar, yuridik klinikalar, yuridik birlashmalar va yuridik yordam markazlari amaliyoti umuman o'z hissasini qo'shishi kerak. Soliq organlarining ijobiy imijini shakllantirish davlatning soliq to'lovchilar bilan munosabatlarini yaxshilashi, ushbu hamkorlikning barcha tomonlari uchun fuqarolik javobgarligini shakllantirishi kerak.

O‘zbekistonda samarali soliq ma’muriyatchiligi tizimini shakllantirish metodologiyasini yanada aniq tarzda ifodalab quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asoslangan yangi soliq siyosati asosida soliq to‘lovchilar uchun yaratilgan sharoit va iqtisodiy bazis, rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda “samarali solik ma’muriyatchiligi”, “soliq ma’muriyatchiligi samaradorligi mezonlari va kursatkichlari” tushunchalari mazmuniga tizimli yondoshuvga asoslangan yangi ta’rif beriladi;

- Soliq amaliyoti tadqiqi asosida, samarali soliq ma’muriyatchiligini shakllantirishning tizimli muammolarini aniqlanadi va ularni hal etishga oid takliflar tizimi tavsiya etiladi.

- Soliq bazasini kengaytirish va soliq to‘lovchilar moliyaviy imkoniyatlari tizimidagi hozirgi zamon o‘zgarishlarini hisobga olgan holda samarali solik ma’muriyatchiligi asosida soliq tulovchilarning soliq organlari faoliyati sifatidan konikishlarini kompleks baxolash uslubiyoti taklif etiladi.

O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish fiskal barqarorlikka erishish va iqtisodiy rivojlanish uchun juda muhim bo‘lgan doimiy yo‘ldir. Majburiylikni qo‘llab-quvvatlash, texnologiyalardan foydalanish, manfaatdor tomonlarni jalb qilish va soliq siyosatini doimiy ko‘rib chiqish bilan uyg‘unlashtirgan muvozanatli yondashuvni amalga oshirish orqali O‘zbekiston soliq ma’muriyatchiligi tizimini yaxshilashi, natijada o‘z fuqarolariga foyda keltirishi va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishi mumkin. Bu sa’y-harakatlarning muvaffaqiyati nafaqat kuchli soliq tizimini, balki butun mamlakat farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son qarori
5. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma’muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr

6. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. -448 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi”dagi PF-4947-son Farmoni. - www.lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli farmoni, 2019-yil 26-sentyabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ4389-son qaroriga 1-ilova ”Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi”ning 3-bob, 3.3-bandi.
10. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
11. Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In E Conference Zone (pp. 92-95).
12. Nerre Birger. The Concept of Tax Culture. In: National Tax Association Proceedings Ninety-Fourth Annual Conference. Baltimore, Maryland / Edited by Sally Wallace. NTA, Washington DCB, 2001. P. 291.
13. Schumpeter J.A. Okonomie und Soziologie der Einkommensteuer // Der Deutsche Volkswirt. 1929. Vol. 4. P. 380—385.
14. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). Soliq yukining biznes uchun ahamiyati. Scientific progress, 3(3), 699-708.
15. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o‘rni. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 121-127.
16. Aliyu, A.O., Kumai, N.S. and Mustapha, L.O. (2022) A Conceptual Review of Nigerian Tax Administration in Globalisation and Profit Shifting Challenges. Open Access Library Journal, 9, 1-10. doi: 10.4236/oalib.1109030
17. Awasthi R., Nagarajan M., Deininger K.W. (2021) Property taxation in India: issues impacting revenue performance and suggestions for reform. Land Use Pol., 110, Article 104539, 10.1016/j.landusepol.2020.104539
18. Bird, R. (2004). Administrative dimensions of tax reform. Asia-Pacific Bulletin, 10, 3– 21.
19. Bannister F., R. Connolly (2020) Administration by algorithm: a risk management framework. Inf. Polity, 25 (4), pp. 471-490, 10.3233/ip-200249
20. Crivelli E. (2019) A basic tool to assess tax administration strength in emerging Europe. Economics of Transition and Institutional Change, 27 (2), pp. 425-446, 10.1111/ecot.12204

21. De Mello L. (2009) Avoiding the value added tax: theory and cross-country evidence. *Publ. Finance Rev.*, 37 (1) , pp. 27-46, 10.1177/1091142108316588
22. Maiga, S. (2015) The Impact of Tax Collection in Achieving Revenue Targets: The Directorate General of Taxes of Mali Case Study. *Theoretical Economics Letters*, 5, 403-409.
23. Martinez-Vazquez, J., Sanz-Arcega, E. and Tránchez-Martín, J.M. (2022) Tax Revenue Management and Reform in the Digital Era in Developing and Developed Countries. International Center for Public Policy Working Paper 22-01 January 2022, Andrew Young School of Policy Studies, Georgia State University, Atlanta, 1-41.
24. Nguyen T.T., D. Prior, S. Van Hemmen (2020) Stochastic semi-nonparametric frontier approach for tax administration efficiency measure: evidence from a cross-country study. *Econ. Anal. Pol.*, 66, pp. 137-153, 10.1016/j.eap.2020.03.002
25. Ogbonna, G.N. (2016) Effect of Tax Administration and Revenue on Economic Growth in Nigeria. <https://www.iiste.org>
26. Savić G. , Dragojlović A. , Vujošević M. , M. Arsić, M. Martić (2015). Impact of the efficiency of the tax administration on tax evasion. *Economic Research-Ekonomska Istraživanja*, 28 (1) , pp. 1138-1148, 10.1080/1331677X.2015.1100838
27. Van Stolk C., Wegrich K. (2008) Convergence without diffusion? A comparative analysis of the choice of performance indicators in tax administration and social security. *Int. Rev. Adm. Sci.*, 74 (4), pp. 589-614,
28. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni).
29. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
30. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
31. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti